



INNOVATIVE
WORLD

ISSN: 3030-3079

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

**SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI
TADQIQOTLAR JURNALI**

Scientific Journal

2026/6



www.innoworld.net
+998 33 5668868



ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 4, Issue 6
2026

Journal has been listed in different indexings

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:
www.innoworld.net

Uzbekistan-2026



KATTA SINIF O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING SAMARADORLI

Olloberganova Sharifaxon

Ma'mun Universiteti Filologiya va tillarni o'qitish Ingliz tili
2-kurs talabasi

Annatsiya. Bugungi globallashtirish sharoitida chet tillarni bilish har bir mutaxassis uchun muhim ko'nikmalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida alohida o'rin tutmoqda. Shu bois umumta'lim maktablarida ingliz tilini samarali o'qitish dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. Katta sinf o'quvchilari til o'rganish jarayonining muhim bosqichida turadilar. Ular allaqachon ma'lum darajada grammatik bilimlarga ega bo'lsalar-da, ko'pincha o'z fikrlarini ingliz tilida erkin ifoda etishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa o'qitish metodikasini takomillashtirishni talab etadi. Zamonaviy pedagogikada kommunikativ yondashuv ingliz tilini o'qitishda eng samarali metodlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi katta sinf o'quvchilarida ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati va samaradorligini yoritishdan iborat.

Kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari

Kommunikativ yondashuv XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan bo'lib, u tilni muloqot vositasi sifatida o'rganishga asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, tilni o'rgatishdan asosiy maqsad — o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda samarali muloqot qila olish qobiliyatini rivojlantirish hamda madaniyatlararo muloqot tizimini tubdan takomillashtirishdir.

An'anaviy metodlarda grammatik qoidalarni yodlashga urg'u berilgan bo'lsa, kommunikativ yondashuvda nutqiy faoliyat ustuvor hisoblanadi. Bu yondashuv asosan o'quvchilarning faolligini oshirishga yordam beradi hamda dars jarayonida real muloqotga yaqin vaziyatlar yaratish orqali yanada chuqurroq ma'no kasb qiladi. Bu jarayon faqatgina gapirish metodlari bilangina emas, balki o'rganilgan grammatik ko'nikmalar bilan chambarchas bog'liqdir. Bundan tashqari, o'quvchilar tomonidan qilingan xato va kamchiliklarni tabiiy jarayon sifatida qabul qilishlik, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlikni mustahkamlaydi. Shu orqali kommunikativ yondashuv zamonaviy ta'lim talablariga mos metodga aylanadi.

Katta sinf o'quvchilarining nutqiy rivojlanish xususiyatlari

Ma'lumki, katta sinf o'quvchilari psixologik va intellektual jihatdan ancha rivojlangan bo'ladilar. Ular asosan mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatiga ega. Bundan tashqari, ular kichik maktab yoshidan, ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalaridan hamda o'rta maktabning kichik sinflaridan muntazam ravishda ingliz tilini o'rganib kelishadi. Bu esa ingliz tilini chuqurroq

o'rganish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Biroq amaliyotda ba'zi muammolar, qaysiki o'quvchilarning psixologik holatlari va pedogoglarning ilmiy mahoratlarining yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar kuzatiladi. Ingliz tilida o'z fikrini bayon qilishdan uyalish yoki qo'rqish asosan o'quvchilarning psixologik holatiga mansub bo'lib, ko'p hollarda bunga tengdoshlar bosimi sababchi bo'ladi. Bunday paytda o'qituvchi dars jarayonida erkin muloqot muhitini shakllantira olmasa bu holat yanada chuqur iz oladi. Bu jarayon bora-bora o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini kamayishiga, binobarin, ingliz tilida muloqot qilishga fobiya uyg'otishi mumkin. Shuning uchun pedogoglar dars jarayonini maroqli kechishi uchun qiziqarli, interaktiv metodlarni, jumladan speaking klublarni tashkillashtirishlari kerak. Asosan shu kabi klublar sinfdagi sanoqli o'quvchilar bilan emas balki sinfdagi barcha o'quvchi bilan ishlash imkonini yaratadi. Yana shuni ham aytish joizki, ingliz tilini o'qitishda barcha diqqat-e'tiborni grammatik qoidalarni har birini ikir-chikirigacha maydalashib o'qitishga yoki faqat lug'atlar bilan ishlab so'z boyligini oshirishga qaratish yetarli emas. Bu metod ko'p hollarda foyda bermasligi va ko'p vaqt olishi mumkin. Ammo bunday paytda o'rganilgan grammatik strukturalarni hamda murakkab so'z boyligini hamohang holda nutqiy faoliyatda qo'llanilsa yaxshi natija beradi. Shu tariqa ingliz tili qiyin yoki zerikarli dars emas balki, barcha o'quvchilar uchun qiziqarli hamda interfaol darslardan biri bo'la oladi.

Gapirish ko'nikmasini rivojlantirish usullari

Ma'lumki, inglizcha nutqiy faoliyatni oshirish uchun mo'ljallangan faqatgina bitta emas, balki bir necha faoliyat turlari mavjud bo'lib, ular asosan o'quvchilarning imkoniyatidan kelib chiqib tanlanadi. Ya'ni, bazi o'rganuvchilar rolli o'yinlar tashkil qilib jamoaviy ishlashni manzur ko'rishsa, bazilari yakka holatda munozaralar va debatlar orqali o'z fikrlarini yoritishadi. Mening fikrimcha, kommunikativ yondashuv asosida rolli o'yinlar bilan ishlash samarali metod hisoblanadi. Bu metod orqali o'quvchilar turli xil hayotiy vaziyatlarda o'zgacha obraz kashf qilishlari va shu obrazni gavdalandirishda ingliz tili savodxonligidan foydalanib gapirish ko'nikmasini oshiradilar. Bunday o'yinlar o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda ishtirok etishiga yordam beradi. Masalan, mehmonxonada suhbat, do'konda xarid qilish yoki do'stlar bilan muloqot qilish kabi vaziyatlar yaratiladi. Shu kabi vaziyatlar real hayotiy muloqotga yaqin bo'lib, juda samarali hisoblanadi. Bu usul o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi. Har bir o'quvchi gapirish imkoniyatiga ega bo'ladi va bu ularning ishonchini mustahkamlaydi. Ya'na bir ko'zga ko'rinadigan tomoni shundaki, bu usul faqatgina o'quvchilarning gapirish mahoratini emas balki, kreativ fikrlash mahoratini ham kengaytiradi. Misol uchun sinfdagi o'quvchilarni teng taqsimlagan holatda 2 yoki 3 guruhga bo'lib, har bir guruhga turlicha vaziyatni ifoda etuvchi mavzu yuklatilsa, ular jamoaga tayangan holda murakkab, qiziqarli va noodatiy holatlarni o'z fikr va g'oyalaridan kelib chiqib kashf etadilar. Shu yosinda, bu metod gapirish salohiyati bilan birga aqliy salohiyatni ham yuqori darajaga olib chiqadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kommunikativ yondashuv katta sinf o'quvchilarida ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy nutqiy ko'nikmalarni ham egallaydilar.

Natijada ular ingliz tilida erkin muloqot qila oladigan, mustaqil fikrlaydigan va zamonaviy talablarga javob beradigan shaxs sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J.J. "*Chet til o'qitish metodikasi*". Toshkent, 2012.
2. Harmer J. "*How to Teach English*". London, 2007.
3. Richards J.C., Rodgers T.S. "*Approaches and Methods in Language Teaching*". Cambridge, 2001.
4. Scrivener J. "*Learning Teaching*". Oxford, 2011.
5. O'zbekiston Respublikasi ta'lim standartlari va o'quv dasturlari.

